

SHAXSLARARO MULIQOTNING SHAXS TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Raufjonova Mastona

“Filologiya va tillarni o'qitish(ingliz tili)”

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rni keng qamrovda tahlil etiladi. Insonning ijtimoiy hayotga moslashuvi, psixologik yetilishi, emotsional barqarorligi va o'zini tanib borishi jarayonlarida muloqotning tutgan o'rni alohida ilmiy asoslar bilan yoritiladi. Maqolada muloqotning mazmuni, shakllari va funksiyalari chuqur tahlil qilinib, shaxs rivojida kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishi, o'zaro ta'sir jarayonlarining samaradorligi, faol tinglash, fikr almashish va hamkorlikdagi muloqotning ijobiy ta'siri keng bayon qilinadi. Shuningdek, maqolada muloqot sifati va uslubining shaxsning ijtimoiy tajribasi, dunyoqarashi, xulq-atvori hamda qaror qabul qilish qobiliyatiga qiladigan ta'siri ilmiy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Natijada, shaxs taraqqiyotida sog'lom va samarali muloqotning ajralmas o'rin tutishi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxslararo muloqot, shaxs taraqqiyoti, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiy moslashuv, emotsional rivojlanish, o'zini anglash, faol tinglash, psixologik yetuklik, o'zaro ta'sir, nutq madaniyati, muloqot uslubi, shaxs shakllanishi.*

Annotation: *This article provides an in-depth analysis of the role of interpersonal communication in the development of an individual. It highlights how communication contributes to social adaptation, psychological maturity, emotional stability, and the strengthening of self-awareness. The paper examines the content, forms, and functions of interpersonal communication, emphasizing the significance of communication skills, active listening, idea exchange, and collaborative interaction in personal growth. The study further explains how the quality and style of communication influence a person's social experience, worldview, behavior patterns, and decision-making abilities. Based on the analysis, the article concludes that effective, healthy, and well-structured interpersonal communication is an essential component of holistic personal development.*

Keywords: *interpersonal communication, personal development, communication skills, social adaptation, emotional development, self-awareness, active listening, psychological maturity, interpersonal interaction, speech culture, communication style, personality formation.*

Аннотация: *В данной статье всесторонне рассматривается роль межличностного общения в процессе развития личности. Особое внимание уделяется тому, как коммуникация влияет на социальную адаптацию человека, его психологическую зрелость, эмоциональную устойчивость и формирование самосознания. В работе подробно анализируются содержание, формы и функции межличностного общения, а также раскрывается влияние коммуникативных навыков, активного слушания, обмена мнениями и межличностного*

взаимодействия на личностный рост. Кроме того, подчеркивается, как качество и стиль общения формируют социальный опыт человека, его мировоззрение, поведенческие модели и способность принимать взвешенные решения. На основании проведенного анализа утверждается, что эффективное и гармоничное общение является неотъемлемым фактором полноценного развития личности.

Ключевые слова: *межличностное общение, развитие личности, коммуникативные навыки, социальная адаптация, эмоциональное развитие, самопознание, активное слушание, психологическая зрелость, межличностное взаимодействие, культура речи, стиль общения, формирование личности.*

KIRISH

Inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, chunki uning har bir faoliyati, qarori va rivojlanish jarayoni boshqalar bilan o'zaro munosabatlar orqali shakllanadi. Shaxslararo muloqot insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi hayotida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Muloqot jarayonida odamlar nafaqat axborot almashadilar, balki fikr yuritish doirasini kengaytiradilar, o'z nuqtayi nazarini shakllantiradilar, his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar hamda ijtimoiy tajriba orttiradilar. Shu bois, shaxs taraqqiyoti jarayonini muloqotsiz tasavvur qilishning iloji yo'q. Zamonaviy jamiyatning jadallik bilan rivojlanishi, axborot oqimining kuchayishi, raqamli muhitning kengayishi insonlar o'rtasidagi muloqot sifatini yanada muhim omilga aylantirmoqda. Bugungi kunda insonning psixologik holati, ijtimoiy faolligi, kasbiy muvaffaqiyati, hatto shaxslararo munosabatlari ham uning qanday muloqot qilishi bilan bevosita bog'liq. Muloqotning yetarli darajada rivojlanmaganligi esa tushunmovchiliklar, konfliktlar, o'zini ifoda eta olmaslik, ijtimoiy faollikning pasayishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shaxslararo muloqot shaxsning o'zini anglash jarayonida, dunyoqarashining shakllanishida, xatti-harakatlarning boshqarilishida, emotsional barqarorlikda va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Aynan muloqot orqali inson o'zini boshqa odamlar bilan taqqoslaydi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, maqsadlarini aniqlaydi va ularni amalga oshirishda zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu bois ushbu tadqiqotda shaxslararo muloqotning mazmuni, turlari, vazifalari, shaxs rivojiga ta'sir mexanizmlari hamda muloqot jarayonidagi psixologik omillar ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada muloqotning shaxs taraqqiyotida tutgan o'rni chuqur yoritilib, uning ijtimoiy va psixologik ahamiyati asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR SHARXI. Shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish psixologiya va pedagogika fanlarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotchilar muloqotning mazmuni, tuzilishi, funksiyalari va shaxs rivojiga ta'sirini o'z ilmiy izlanishlarida keng yoritib berganlar. Ushbu bo'limda ana shu adabiyotlarning asosiy qarashlari umumlashtiriladi. Rus psixologlari L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarning ilmiy izlanishlarida shaxsning shakllanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekani alohida ta'kidlanadi.

Vygotskiyning “ijtimoiy rivojlanish nazariyasi”ga ko’ra, insonning psixologik rivoji avval tashqi muloqot jarayonlari orqali ro’y beradi, keyinchalik ichki psixik funksiyalarga aylanishi muloqotning asosiy mexanizmlaridan biridir. Leontyev esa faoliyat va muloqotning o’zaro uyg’unligini asoslab, shaxs rivoji ijtimoiy tajriba almashinuvi bilan boyib borishini ta’kidlaydi. Xorijiy tadqiqotchilar ham muloqotning shaxs taraqqiyotiga ta’sirini keng o’rgangan. Masalan, A. Maslowning ehtiyojlar nazariyasida muloqot “ijtimoiy ehtiyojlar”ning asosiy qismi sifatida talqin qilinadi. Mutaxassisga ko’ra, insonning o’zini jamiyatda erkin his qilishi, o’z qarashlarini ifoda etishi va shaxsiy o’sishga intilishi samarali muloqot orqali ro’y beradi. E. Berning “transaksion analiz” nazariyasi esa odamlar o’rtasidagi muloqot shakllari, rollar, “Ota-Katta-Bola” holatlari orqali shaxs xulq-atvorining ijtimoiy ko’rinishini tushuntiradi. Bu yondashuv muloqot jarayonida odamlar o’zini qanday tutishini, qanday psixologik pozitsiyada bo’lishini chuqur sharhlaydi. Muloqotning pedagogik aspektlarini tadqiq etgan J. Dewey va K. Rodjerslar muloqotning tarbiyaviy kuchini alohida qayd etadilar. Dewey fikriga ko’ra, ta’lim jarayonida muloqot o’quvchi shaxsining faolligini, ijodkorligini va mustaqil fikrlashini shakllantiradi. Rodjers esa “insonparvar psixologiya” asosida muloqotni shaxsning emotsional rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri deb ko’rsatadi. Uning fikrida, samimiy, ochiq va qo’llab-quvvatlovchi muloqot insonning o’zini anglashini sezilarli darajada tezlashtiradi. Mahalliy olimlar — A. Jabborov, M. Ashurov, S. G’aniyevalarning tadqiqotlarida muloqotning O’zbekiston jamiyatining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari doirasidagi o’rni keng yoritilgan. Ularning ishlarida shaxs fazilatlarining shakllanishida oilaviy muloqot, ta’lim muassasalari, do’stlar guruhi va digital muloqot platformalari orqali ro’y beradigan o’zaro ta’sirlar tahlil qilingan. Bunda milliy mentalitet va qadriyatlarning muloqot jarayoniga ta’siri alohida urg’u bilan ko’rsatiladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli muloqotning shaxs rivojiga ta’siri ko’proq o’rganilmoqda. N. Turkle, H. Rheingold kabi olimlar insonning onlayn muloqotdagi ishtiroki psixologik barqarorlik, o’zini ifoda etish va emotsional yetuklikka ijobiy ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, texnologiyalar shaxslararo aloqada qulaylik yaratgan bo’lsa-da, real muloqot ko’nikmalarining susayishiga ham sabab bo’lishi mumkin.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, shaxs taraqqiyotida muloqotning o’rni universal ahamiyatga ega bo’lib, u insonning ijtimoiy, psixologik, emotsional va intellektual rivojlanishining ajralmas qismidir. Turli nazariyalar mazkur jarayonning mexanizmlarini turli nuqtayi nazardan yoritishga qaratilgan bo’lsa-da, ularning barchasi muloqot shaxsning shakllanishida yetakchi omil ekanini tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotiga ko’rsatadigan ta’sirini chuqur va har tomonlama o’rganishga yo’naltirilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida klassik psixologik nazariyalar, zamonaviy kommunikatsiya modellari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarning tahlili asosiy metodik poydevor bo’lib xizmat qildi. Shaxs rivoji va muloqot jarayonining o’zaro bog’liqligini yoritishda L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, S.L.

Rubinshteyn, A. Maslow, K. Rodgers va E. Bern kabi olimlarning ilmiy qarashlari metodologik tayanch vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida mavjud nazariy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, psixologik izlanishlar keng o'rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi, fikrlar taqqoslandi va umumlashtirildi. Shuningdek, metodologiyada muloqot va shaxs rivojining o'zaro ta'sir mexanizmlarini ochib beruvchi analitik yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv shaxsning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorligi, o'zini anglashi va psixologik yetukligiga muloqotning qanday ta'sir qilishini tushuntirishda muhim bo'ldi. Mavzuning mohiyatini ochib berishda tizimli yondashuv muhim o'rin tutib, shaxsni murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Tizimli tahlil orqali muloqotning shaxs faoliyati, dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va axloqiy fazilatlarini bilan uzviy bog'liqligi aniqlab berildi.

Shuningdek, kommunikativ jarayonlarni tushuntirishda Shannon-Weaver, Berne va Rodgers kabi kommunikatsiya modellari asosida muloqotning tarkibiy qismlari, axborot uzatish bosqichlari, shovqin omillari va muloqot samaradorligini oshiruvchi omillar nazariy jihatdan ko'rib chiqildi. Tadqiqotning nazariy yo'nalishini boyitish maqsadida mahalliy psixologlar va pedagoglarning ilmiy qarashlari ham o'rganilib, O'zbekiston jamiyatiga xos madaniy-ijtimoiy omillar tahlil qilindi. Umuman olganda, ushbu metodologiya muloqot va shaxs rivoji o'rtasidagi murakkab, ko'p qirrali va dinamik jarayonni chuqur ilmiy tahlil qilish imkonini berdi.

TADQIQOT NATIJALARI. Shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rni masalasi bugungi kunda psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida eng dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mavzuning asosiy muammosi shundaki, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari keskin o'zgarib bormoqda, real hayotdagi muloqot ko'nikmalari esa ko'plab individlarda sustlashib yoki bir yoqlama rivojlanib qolmoqda. Natijada shaxsning ijtimoiy moslashuvi, emotsional yetukligi, o'zini ifoda etish qobiliyati, o'zaro tushunish jarayonlari va psixologik barqarorlik kabi muhim jihatlar turlicha rivojlanmoqda. Bunday sharoitda muloqotning inson taraqqiyotiga haqiqiy ta'sir mexanizmlarini aniqlash, uning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini belgilash va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yechim ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi. Ilmiy muammoning yana bir jihati shundaki, ko'plab tadqiqotlar muloqotni faqat til yoki axborot almashinuvi sifatida talqin qiladi, ammo shaxs rivojiga ta'sir qiluvchi emotsional, psixologik, madaniy va ijtimoiy omillar yetarli darajada kompleks o'rganilmaydi. Shaxsning o'zini anglash jarayoni, ichki psixologik faolligi va ijtimoiy tajribani qabul qilish darajasi muloqot sifati bilan bevosita bog'liqligiga qaramay, amaliyotda bu bog'liqlik ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Zamonaviy yoshlarning ko'proq virtual muloqotga suyanishi esa real hayotdagi empatiya, faol tinglash, konflikt boshqarish va o'zaro hurmat tizimlarining tobora zaiflashishiga olib kelmoqda. Ushbu ilmiy muammoning yechimi sifatida muloqotni shaxs taraqqiyotining markaziy omili sifatida kompleks yondashuv asosida tadqiq etish taklif etiladi. Bunda kommunikativ jarayonning psixologik, emotsional, ijtimoiy va madaniy jihatlarini birgalikda o'rganilib, shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan

muloqot mexanizmlarini aniqlash muhimdir. Shaxs taraqqiyotida muloqotning real ta'sirini ochib berish uchun Vygotskiy, Rodgers, Maslow va Bern nazariyalariga tayangan holda muloqotning inson rivojidagi o'rni tahlil qilinadi. Ularning ilmiy qarashlari shaxsning faqat nutqi emas, balki emotsional holati, ichki motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va o'zini anglash jarayoni orqali rivojlanishini ko'rsatadi. Ilmiy muammoning amaliy yechimi sifatida esa yoshlar o'rtasida real muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, faol tinglash, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni oshirish, sog'lom kommunikativ muhit yaratish, o'zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan treninglar, kommunikativ mashg'ulotlar, psixologik dasturlar joriy etilishi taklif qilinadi. Bundan tashqari ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish bo'yicha qo'shimcha o'quv jarayonlari yo'lga qo'yish shaxsning psixologik barqarorligini mustahkamlaydi va uning kelajakdagi ijtimoiy faolligini oshiradi. Kompleks yondashuv orqali muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini chuqur o'rganish ilmiy muammoning to'laqonli yechimiga olib keladi.

XULOSA. Shaxslararo muloqot inson taraqqiyotining eng muhim va ajralmas omillaridan biridir. Chunki inson biologik mavjudot sifatida tug'ilgan bo'lsa-da, ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi faqat boshqalar bilan bo'lgan o'zaro munosabat va muloqot jarayonida amalga oshadi. Muloqot jarayonida shaxs nafaqat axborot almashadi, balki o'zini anglaydi, o'z qobiliyatlarini sinaydi, jamiyatda o'z o'rnini topadi, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi hamda ijtimoiy tajribani amaliyotga tadbqiq qiladi. Bugungi kunda kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi, global axborot maydonining genishayishi shaxslararo muloqotning mazmuni, vositalari va ko'lamiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa yoshlar orasida virtual muloqotning ortishi real muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini yanada dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda.

Shaxs taraqqiyotini o'rganayotgan tadqiqotchilar fikriga ko'ra, insonning psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, emotsional barqarorligi va maqsad sari intilish qobiliyati ko'p jihatdan muloqot tajribasiga bog'liq. Boshqalar bilan sog'lom aloqa o'rnatgan shaxs o'z fikrini ochiq ifoda eta oladi, nizoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutadi, ijtimoiy rollarni ongli ravishda bajaradi va o'z hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarga faol tasir ko'rsatadi. Demak, muloqot — bu shaxsning rivojlanishini ta'minlovchi asosiy "ijtimoiy laboratoriya". Mazkur tadqiqot davomida shaxslararo muloqotning psixologik, sotsiologik va pedagogik jihatlari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, muloqot birgina axborot almashish jarayoni emas, balki shaxsning emotsional-intellektual rivojiga kuchli turtki beruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizm hisoblanadi. Odamlar orasidagi o'zaro hurmat, samimiyat, empatiya, faol tinglash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari jamiyatning ham, har bir shaxsning ham barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi — shaxslararo muloqot o'rgatiladigan, rivojlantiriladigan va takomillashtiriladigan ko'nikma ekanligidir. Ya'ni inson tug'ilgandan "tayyor muloqotchi" bo'lib kelmaydi, balki bu ko'nikmalar oilada, maktabda, jamiyatda, do'stlar davrasida va shaxsiy tajribalar orqali shakllanadi. Shu sababli ta'lim

muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan treninglar, mashg'ulotlar, jamoaviy loyihalar va psixologik xizmat tizimini mustahkamlash zarur. Xulosa qilib aytganda, shaxslararo muloqot shaxs taraqqiyotining markazida turuvchi asosiy omildir. Muloqot bor joyda fikr bor, fikr bor joyda esa rivojlanish bor. Bugungi globallashuv sharoitida kuchli kommunikatsiya ko'nikmalariga ega bo'lgan yoshlar — kelajak jamiyatining muvaffaqiyatli, liderlik salohiyatiga ega, ongli, faol va o'z yo'lini topa oladigan avlodiga aylanishi shubhasiz. Shu bois shaxslararo muloqotni rivojlantirish nafaqat individual YOKI pedagogik vazifa, balki keng ijtimoiy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vygotsky, L. S. — Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes
2. Maslow, A. H. — Motivation and Personality
3. Maslow, A. H. — Religions, Values, and Peak Experiences
4. Berne, E. — Games People Play: The Psychology of Human Relationships
5. Luria, A. R. — The Nature of Human Conflicts
6. Light, J., McNaughton, D. — Communicative Competence for Individuals who Require Augmentative and Alternative Communication
7. Bar-Yam, Y., Kantor, D. — A Mathematical Theory of Interpersonal Interactions and Group Behavior
8. McIntyre, S., MOUNGOU, A., Boehme, R. — Affective Touch Communication in Close Adult Relationships
9. Walter, J. — Cyber-Communication: Computer-Mediated Communication Theory
10. Altman, I., Taylor, D. — Social Penetration: The Development of Interpersonal Relationships
11. Kuʻnitsyna, V. N., Kazarinova, N. V., Pogol'sha, V. M. — Mezhlchnostnoe obshchenie
12. Solixodjayeva, D. A. — Shaxslararo munosabatlar va konfliktlar psixologiyasi
13. Matkarimova, D. Q., Xudoyberganov, X. Sh. — Psixik holatning shaxslararo munosabatlarga ta'siri
14. Muxamedova, D., Sayitova, N. — Muloqot shakllanishida oilaning o'rni
15. Avlaqulov, B. R. — Muloqot psixologiyasi: Shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari
16. Rixsiyeva, M., Samatova, N. — Psixologik manbalar ro'yxati: Shaxslararo muloqot
17. G'oziyev, E. G. — Umumiy psixologiya
18. Kossakowski, — Handbook of Soviet Psychology
19. Wertsch, J. V. — From Social Interaction to Higher Psychological Processes
20. Bruner, J. S. — On the Ontogenesis of Speech Acts

21. El'konin, D. B. — Problema obucheniya i razvitiya
22. Podol'sky, A. J. — Formirovanie simultannogo opoznavaniya
23. Tikhomirov, O. K. — Obshchestvenno-istoricheskiy podkhod k razvitiyu psikhicheskoy deyatel'nosti
24. Van der Veer, R., IJzendoorn, M. H. — Main Currents of Critical Psychology
25. Zaporozhets, A. V. — Rol' L. S. Vygotskogo v razrabotke problem vospriyatija
26. Zinchenko, V. P., Vergiles, N. Ju. — Formirovanie zritel'nogo obraza
27. Zivin, G. (ed.) — The Development of Self-Regulation Through Private Speech